ATOPIK DERMATITLI BEMORLARDA PSEVDOALLERGIK HOLATNING O‘ZARO KORRELYATSIYASI

Turaev Nodirbek Tairjanovich
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
Xodjayeva Shaxzoda Kamron qizi
Respublika Ixtisoslashtirilgan Allergologiya va Klinik Immunologiya Ilmiy Amaliy Markazi (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya.
Atopik dermatit (AD) — immun tizimining IgE vositachiligidagi surunkali yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, uning patogenezida faqatgina IgE vositachiligidagi allergik reaksiya emas balki psevdoallergik mexanizmlar va IgE vositachiligisiz reaksiyalar ham muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda AD bilan og‘rigan bemorlarda diaminooksidaza (DAO) fermenti faolligining pasayishi bilan bog‘liq gistaminni ko`tara olmaslik holati tez-tez uchrayotgani aniqlanmoqda. Bunday holatlarda noto‘g‘ri diagnostika, turli xil ortiqcha preparatlar qo‘llanishi va polipragmaziyaga sabab bo‘ladi. Ushbu maqola - atopik dermatitli bemorlarda psevdoallergik holatlarning chastotasini, DAO darajasi bilan IgE miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va to‘g‘ri dietoterapiya hamda DAO fermenti qo‘llanishining klinik samaradorligini baholashdan iborat.

Materiallar va metodlar.
Tadqiqot RIA va KIIAM da o‘tkazildi. 34 nafar atopik dermatitli bemor (20 nafar ayol, 14 nafar erkak; yoshi 15 dan 45 yoshgacha) tekshiruvga jalb qilindi. Umumiy IgE darajasi immunoferment (ELISA) usulida aniqlandi. Bundan tashqari DAO fermentining miqdori ham ELISA usulida aniqlandi. Psevdoallergik holatlar gistaminga boy oziq ovqatlar (sitrus mevalar, pishloq, shokolad va fermentlangan mahsulotlar) iste’mol qilinganidan keyin simptomlar kuchayishi orqali aniqlangan. DAO darajasi past aniqlangan 21 nafar bemorga “DAO Prim Vegan” preparati ovqatdan 30 daqiqa oldin, kuniga 2–3 mahal, 1 oy davomida buyurildi. Barcha bemorlarga gipoallergen dieta tavsiya qilindi. Polipragmaziya mezoni sifatida bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq antigistamin preparatlarni yoki uzoq muddatli GKS terapiyasini qabul qilish holatlari baholandi.

Natijalar.
Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 34 bemordan 15 tasida umumiy IgE miqdori me’yordan yuqori (kamida 3 barobar, ayrim hollarda 5–7 martagacha) ekanligi aniqlandi. Qolgan 19 bemorda IgE darajasi me’yorda yoki past. DAO fermentining miqdori kamligi 21 nafar bemorlarda (61,8%) aniqlandi, bu holat psevdoallergik simptomlarning (qichishish, eritema, shish, dispepsiya) kuchayishi bilan chambarchas bog‘liq edi. DAO Prim bilan 1 oylik davolashdan so‘ng bemorlarning aksariyatida simptomlar sezilarli kamaydi, antigistamin va GKS preparatlariga ehtiyoj qisqardi, parhezga rioya etish osonlashdi. Natijada polipragmaziya holatlari 2,3 martaga kamaydi. Olingan natijalar atopik dermatitning har doim ham faqat IgE vositachiligidagi mexanizmlar bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. DAO faolligining pasayishi va gistamin metabolizmining buzilishi psevdoallergik holatlarga olib keladi, bu esa kasalikni klinik kechuvini og‘irlashtiradi. Shunga ko‘ra, AD ni baholashda DAO darajasini aniqlash tashxisning muhim qismi bo‘lishi kerak. DAO Prim qo‘llash va gistaminoz mahsulotlarni cheklash simptomlarni yengillashtirib, dori yuklamasini kamaytirish imkonini beradi. Bu esa individual yondashuv va farmakoterapiyani optimallashtirish orqali bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi. Adabiyotlar bilan taqqoslaganda, bizning natijalarimiz DAO faolligi past bo‘lgan atopik bemorlarda gistaminni ko`tara ilmaslik keng tarqalganligini tasdiqlaydi (Schwelberger et al., Allergy, 2022; Maintz & Novak, Am J Clin Nutr, 2021).

Xulosa.

Atopik dermatitli bemorlarda DAO faolligining pasayishi psevdoallergik simptomlar bilan yuqori korrelyatsiyaga ega. DAO fermenti qo‘llanilishi va to‘g‘ri dietoterapiya simptomlarni kamaytirib, polipragmaziyani sezilarli darajada oldini oladi. Shu sababli, atopik dermatitda faqat IgE darajasini emas, balki DAO faolligini ham baholash diagnostika va davolashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Maintz, L., & Novak, N. (2021). Histamine and histamine intolerance. American Journal of Clinical Nutrition, 113(5), 1234–1242.

2. Schwelberger, H. G. (2022). Diamine oxidase and histamine intolerance. Allergy, 77(2), 543–552.

3. Ring, J., et al. (2020). Atopic dermatitis and pseudoallergy: diagnostic challenges. Clinical and Translational Allergy, 10(1), 45–53.